

ABDULLA QAHHOR – INSON RUHIYATINING MOHIR TASVIRCHISI

Inatullayeva Intizor Jamshid qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, serqirra adib Abdulla Qahhor hayoti va uning asarlaridagi oddiy insonlar taqdirining chuqur badiiy talqini, hayotiy voqealarning realistik tasviri hamda milliy qadriyatlarning ifodasi ochib beriladi. Maqolada Qahhor asarlaridagi ijtimoiy-axloqiy g'oyalar, adibning inson ruhiyatini ochish mahorati va badiiy uslubi tahliliy yondashuv asosida yoritilgan. O'rganishlar natijasida yozuvchi ijodining bugungi yosh avlod tarbiyasidagi o'rni hamda ma'naviy ahamiyati haqida xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Qahhor ijodi, inson ruhiyati, realizm va psixologizm, badiiy mahorat, "O'g'ri" hikoyasi, "O'tmishdan ertaklar", ma'naviy qadriyatlar, o'zbek adabiyoti.

АБДУЛЛА КАХХАР – МАСТЕР ИЗОБРАЖЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ДУШИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются жизнь и многогранное творчество Абдуллы Каххора — крупного представителя узбекской литературы. Раскрывается глубокая художественная интерпретация судеб простых людей, реалистическое изображение жизненных событий и отражение национальных ценностей в его произведениях. В статье проанализированы социально-нравственные идеи, мастерство писателя в раскрытии человеческой психологии и особенности его художественного стиля. В результате исследования сделаны выводы о роли творчества Абдуллы Каххора в духовно-нравственном воспитании современного молодого поколения.

Ключевые слова: Творчество Абдуллы Каххора, человеческая психология, реализм и психологизм, художественное мастерство, рассказ «Вор», «Сказки прошлого», духовные ценности, узбекская литература.

ABDULLA KAHHAR – A MASTER DEPICTOR OF THE HUMAN SOUL

Abstract: This article explores the life and multifaceted creativity of Abdulla Qahhor, a prominent figure in Uzbek literature. It reveals the deep artistic interpretation of ordinary

people's destinies, the realistic depiction of life events, and the reflection of national values in his works. The article analyzes the social and moral ideas expressed in Qahhor's writings, his mastery in portraying human psychology, and his unique literary style. As a result of the study, conclusions are drawn about the writer's role in shaping the moral and spiritual upbringing of today's younger generation.

Keywords: *Abdulla Qahhor's creativity, human psychology, realism and psychologism, artistic mastery, "The Thief" short story, "Tales of the Past", spiritual values, Uzbek literature.*

KIRISH

Qalamdan chiqqan satrlari millionlab qalblarga yetib borgan yozuvchi Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentabrda Qo'qonda temirchi oilasida dunyoga kelgan. Adibning bolalik yillari juda og'ir kechadi.

"...bolaligimda zehninga cho'kib qolgan xotiralar uyg'ondi, yuzaga chiqdi. O'sha vaqtdagi xalq hayoti ko'z oldimga keldi. Mana shuning natijasi bo'lib 30-yillarning o'rtalarida g'am-g'ussaga to'la "O'g'ri", "Tomoshabog'", "Bemor", "Anor", "Millatchilar" vujudga keldi", -deydi yozuvchi. Adib ijodi xalqimizning ma'naviy hayotida muhim o'rin egallaydi. Yozuvchi o'z asarlarida inson ruhiyatini, ichki kechinmalarini, hayotiy sinovlarni chuqur tahlil qiladi. Uning badiiy mahorati shundaki, u qisqa satrlar orqali katta falsafiy mazmunni yoritgan. Abdulla Qahhor o'z asarlarida inson ruhiyatini tahlil etish orqali jamiyatdagi axloqiy, ma'naviy masalalarga e'tibor qaratadi.

Abdulla Qahhor: "Daraxtni undiradigan, o'stiradigan va mevasini laziz qiladigan quyosh, yer va suv bo'lsa, badiiy mahoratni undiradigan va o'stiradigan, samarasini jozibali qiladigan xalq hayotidan olingan ilhomdir", -degan edi. Abdulla Qahhor asarlari o'quvchini o'ylantiradi, hayot va insoniylik haqida mushohada yuritishga undaydi. Yozuvchi insonni voqealar markaziga qo'yar ekan, o'quvchini ham o'sha ruhiy holatni his etishga undaydi. Yozuvchining bunday uslubi o'zbek adabiyotida realistik va psixologik yo'nalishning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI

Abdulla Qahhor shunday degan edi: "Hayot magnit-o'ziga tortadi, yozuvchi shu magnitni o'ziga yuqtira olsagina kitobxonni o'ziga torta oladi". Ushbu fikr yozuvchi ijodida hayotiylik, samimiyat va badiiy haqiqatning muhim o'rin tutishini ifodalaydi. Yozuvchi o'zining ko'plab asarlarida oddiy odamlarning hayotini chuqur tahlil qilgan. Adibning "O'g'ri", "Bemor", "Anor" kabi hikoyalarida qahramonlarning ruhiy holati nozik psixologik detallar yordamida ochiladi. Masalan, "O'g'ri" hikoyasida yozuvchi

qahramonning ichki iztirobini nihoyatda tabiiy tarzda tasvirlaydi. Bu asarda inson qalbida kechadigan ichki kurash, qo‘rquv hislari hayotiy voqealar asosida yoritilgan.

Yozuvchining “Bemor” hikoyasi juda qisqa bo‘lishiga qaramasdan, kitobxonni yuragini iztirobga solib, mushohada qilishga undaydi. Ushbu hikoyada o‘tgan XX asrning dastlabki yillari tasvirlangan. Hikoyada “Bemor” faqatgina Sotiboldining xotini emas, jamiyat xasta edi. Adib qalamiga mansub qissalar orasida “O‘tmishdan ertaklar” alohida ajralib turadi. “O‘tmishdan ertaklar” yozuvchining bolalik xotiralari, u ko‘rgan va boshidan kechirgan hayotiy voqealar asosida yaratilgan asardir. Mazkur qissada bola obrazi voqealarning kuzatuvchisi sifatida tasvirlangan, oila va uning atrofidagi hayotiy jarayonlar ochib berilgan.

Abdulla Qahhor komediya sohasida ham bir qator asarlar yozgan. Uning bir qancha hikoya va hajviy asarlari, shuningdek, “Sinchalak” qissasi hamda “Qo‘shchinor chiroqlari” romaniga asoslanib, turli telespektakllar, videofilmlar va badiiy filmlar yaratilgan.

XULOSA

“Kuy avjida uzilmasin tor
She’r yarmida sinmasin qalam
Yashab bo‘lmay umrini zinhor
Bu dunyodan ketmasin odam...”

Ushbu satrlar Erkin Vohidovning qalamiga mansub. Ammo she’rning mazmuni Abdulla Qahhorning hayoti bilan hamohangdek go‘yo. Adib hayotining so‘nggi kunlarida “Zilzila” qissasi ustida ish olib bordi. Afsuski, uni tugallay olmadi... Adib 1968-yilning 25-may kuni vafot etdi va Toshkentdagi Chig‘atoy qabristoniga dafn qilindi.

Abdulla Qahhor Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan. Uning nomi Toshkent va Qo‘qondagi bir necha ko‘cha, maktab va jamoa xo‘jaliklariga, shuningdek madaniyat uylari va respublika Satira teatriga berilgan. 1987-yil 6-mayda Toshkentda Abdulla Qahhor uy-muzeyi tashkil etilgan. Shuningdek, “Adiblar xiyoboni”da Abdulla Qahhorning haykali o‘rnatilgan.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor ijodi o‘zbek adabiyotining bebaho boyliklaridan biridir. Uning asarlarida hayot haqiqatiga sadoqat, inson qalbining nozik jihatlarini chuqur anglash hamda milliy qadriyatlarga hurmat kuchli ahamiyat kasb etgan. Menimcha, adibning eng katta yutug‘i — u oddiy inson hayotidagi quvonch va iztiroblarni samimiy, real shaklda tasvirlay olganida. Qahhorning qahramonlari orqali biz xalqimizning o‘tmishini, ma’naviy qadriyatlarini, mentalitetini, orzu-umidlarini ko‘ramiz. Bugungi kunda ham yozuvchining asarlari yoshlar uchun hayot maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki, unda insoniylik, halollik, sabr va vijdon kabi qadriyatlar yuksak badiiylilikda aks etgan. Shaxsiy kuzatuvimcha, Qahhor ijodini o‘rganish bizni nafaqat adabiyotga, balki hayotga ham boshqacha nigoh bilan qarashga o‘rgatadi. Chunki, adib ijodi o‘zbek adabiyotining

realizm va psixologizm yo‘nalishlarini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois, adibning merosi nafaqat o‘tgan davrni, balki bugungi kunni ham chuqur anglashga yordam beradigan ma‘naviy manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘tmishdan ertaklar”, Qissa, A.Qahhor – Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti-1988
2. “Anor”, Qissa va hikoyalar, A.Qahhor – G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2012.
3. “Qahhorni anglash mashaqqati”, U.Normatov, Toshkent-2000.
4. “Adabiyot 6-sinf”, Darslik, S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2017. – 160 b.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor